

Murodjon Dehqonboy O'g'li Qurbonov
Uzbekistan

Received 19th August 2022, Accepted 25th August 2022, Online 30th August 2022

DESCRIPTION OF SOCIO-POLITICAL PROCESSES OF BUKHARA IN MIRZO SALIMBEK'S "KASHKULI SALIMI AND HISTORY OF MUTTAQADIMIN AND MUTTAAXIRIN"

Abstract. In this article, Mirzo Salimbek's work «Kashkuli Salimiy va histori muttaqadimin va muttaakhirin» highlights the socio-political processes in the Bukhara Emirate, Mirzo Salimbek's activities as a state and public figure, and the information about the rulers of Bukhara presented in the work.

Key words: Emirate of Bukhara, Movarounnahr, amir, bek, governor, Hijri, Isavi, Dodho, Mirza, Qushbegi, train, Amir Masum, Amir Komron, embassy.

ОСВЕЩЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ БУХАРЫ В РАБОТЕ МИРЗО САЛИМБЕКА «КАШКУЛИ САЛИМИ И ИСТОРИЯ МУТТАКАДИМИНА И МУТТААХИРИНА»

Аннотация. В данной статье в работе Мирзо Салимбека «Кашкули Салимий ва истории муттагадимин ва муттаахирин» освещаются общественно-политические процессы в Бухарском эмирате, деятельность Мирзо Салимбека как государственного и общественного деятеля, а также представленные в работе сведения о правителях Бухары.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Мовароуннахр, амир, бек, наместник, Хиджра, Исави, Додхо, Мирза, Кушбеги, поезд, амир Масум, амир Комрон, посольство.

MIRZO SALIMBEKNING "KASHKULI SALIMIY VA TARIXI MUTTAQADIMIN VA MUTTAAXIRIN" ASARIDA BUXORO IJTIMOY-SIYOSIY JARAYONLARINING YORITILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mirzo Salimbekning "Kashkuli salimiy va tarixi muttaqadimin va muttaaxirin" asarida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining yoritilishi, Mirzo Salimbekning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati, asarda keltirilgan Buxoro hukmdorlari haqidagi ma'lumotlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Movarounnahr, amir, bek, hokim, hijriy, isoviy, dodxo, mirzo, qushbegi, poyezd, amiri mas'um, amiri komron, elchilik.

Kirish (Introduction)

Mirzo Salimbek 1267/1850-yilda Buxoro shahrining Jo'ybor mavzeyidagi Chaqor guzarida amaldor oilasida tug'iladi. Uning ajdodlari Buxoro amirligida yuqori mansablarda ishlagan ilmi mutafakkir kishilar bo'lganlar. 20 yoshida amakisi Abdulazizbiy ibn Olimbek dodxo yordami bilan Narpay va Ziyovuddin bekligiga borib, Ostonaqulbekning mirzoxonasida mirzolik vazifasida ishlaydi, lekin olti oydan keyin amir Muzaffarning farmoyishi bilan Toshkentga rus ma'murlarining xatti-harakatlari va ayniqsa Buxoro xususida tutgan siyosatini kuzatib boruvchi qilib yuborildi [Бухорий А.Р. Рахимов К. Мирзо Салимбек колдирган мерос // Мозийдан садо, 2006. №. Б.43.].

Mirza Salimbek Toshkentga choyfurush qiyofasida keldi va bu yerda istiqomat qildi. 1880-1883-yillari u amir huzurida, 1884-1885-yillari Turkiston general-gubernatori huzurida Buxoro vakili bo'lib xizmat qildi. 1885-yili Mirza Salimbek Somjin tumaniga amlokдор qilib tayinlandi. Shundan keyin uning martabasi yil sayin ortib bordi. 1881-1893-yillari Buxoro shahrining mirshabi, 1893-1920-yillari Yakkabog', Nurota, Boysun, Sherobod, Shahrisabz, Chorjo'y viloyatlarining hokimi va bosh zakotchi vazifalarida turdi. 1920-yilgi inqilobdan keyin Mirza Salimbek sho'ro tashkilotlarida faoliyat yuritgan. Mirzo Salimbek 1930-yilda vafot etgan [Ражабов К, Иноятов С. Бухоро тарихи. - Тошкент. 2016. 334-бет].

Tarixchi olim sifatida uning yozgan ikki kitobi bizgacha yetib kelgan. Ular «Kashkuli Salimiy va tarixi muttaqadimin va muttaaxirin» («Salimiyning Kashkuli hamda avvalgi va eng so'nggi hukmdorlar tarixi») deb nomlanadi. Bundan tashqari, uning «Jome' gulzor» deb atalgan Sayd Jaloliddin Suyutiyning arab tilidagi diniy-axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan she'rlar, hikoyalarini 1911-yilda tojik tilida tarjima qilib nashr ettirgan.

L.P.Yepifanova o'zining risolasida «Tarixi Salimiy» haqida hikoya qiladi. Uning aytishicha, manbaning yozilgan yili noma'lum, kitob Qo'qon qog'ozida nasta'liq, ikki shaxsning dastxati, 211 sahifalardan iborat, shundan 62 saxifasi O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan bo'lib, Mo'g'ullar, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar va amir Muzaffarxongacha keladi. Qolgan 169 sahifasida esa muallifning o'zi guvoh bo'lgan voqealar bayon etiladi, deb yozadi [Л.П. Епифанова «Рукописные источники по истории Средней Азии периода при соединения её к России», Тошкент.: 1965 йил, С.47.].

Asosiy qism (Main body)

«Muttaqadimin va muttaaxirin» asarida Odam alayxissalomdan Iso alayxissalomgacha o'tgan ayrim payg'ambarlar, Peshdodiyon tabaqasining zikri, Ashkoniyon, Sosoniylar Hazrat Hotam al-Nabiy salolloxu alayxi vassalam, Roshiddin xalifaligi, Ummaviylar, Abbosiylar, Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazm shoxlar, Chingizxon, Sohibqiron Amir Temur, o'zbek podshohlari, Ashtarxoniylar, Mang'itlar Amir Abdulahad podshohligi, Rossiya davlati podshohlari va imperatorlari, Totor xonligining

rus knyazlariga hujumi, Usmonli turk davlati tarixi bayon etilgan. Bu kitob ilmiy jihatdan puxta o'rganilib, 2003-yilda nashr qilindi.

«Tarixi Salimiy» deb nomlangan asari 1917-1920-yilda yozilgan bo'lib, unda Chingizxon davridan inqilob to'ntarishigacha bo'lgan Buxoro amirligi tarixi voqealari xususida fikr yuritiladi [Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского Н.К.Норкулов. — Тошкент. 2009.С.5.]. Mazkur asardan Mirza Salimbekning shaxsiy hayoti to'g'risida ham ma'lumotlar uchraydi. Olimning tarixchi sifatidagi faoliyati Naim Norqulov tomonidan maxsus tadqiq etilgan. «Tarixi Salimiy» asari rus tiliga ham tarjima qilingan edi. Bu olimning 1968-yilda tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyasi ««Tarixi Salimiy» Buxoro amirligi (1860-1920) tarixini o'rganish uchun nodir manba sifatida» deb nomlanadi. Akademik Vohid Abdullayev va professor Rasul Hodizoda asarlarida Mirza Salimbek adabiyotshunos sifatida qayta-qayta tilga olinadi.

Mirzo Salimbek asarlarida Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy jarayonlari yoritilishi haqida to'xtaladigan bo'lsak, shuni kuzatish mumkinki: muallif voqea-hodisalarni xolisona yoritadi, hukmdorlarni ortiqcha ulug'lash hamda ularning nuqsonlarini bo'rttirish kabi holatlardan chetda turadi. Mang'itlar sulolasi taxtga kelar ekan, Mirzo Salimbek ushbu voqealarni quyidagicha ta'riflaydi: Amiri Komron(Muhammad Rahimxon) Hasanxon va Behbudxonga xabar yubordiki, Nodirshoh halok bo'lgan, tezroq o'z'laringizni mamlakatingizga yo'l olingki, o'zbeklar qo'lida poymol bo'lasizlar. Eron amoralari sulh qildilarki, bizlar Amudaryodan o'tganimizga qadar hech kim bizlarga hujum qilmasin. Amir Muhammad Rahimxon bu taklifni qabul qilib, Muhammad Aminbiy yuzga buyurdiki, Eron lashkarini daryodan o'tkazingki, ular o'z viloyatlariga sog' va salomat borsinlar, ular o'z viloyatlariga doxil bo'ldilar [Кашкули Салимий (тавориhi муттақадимин ва муттахириh), Нарзулло Йўлдошев таржимаси, “Бухоро” нашриёти, 2003 йил, Б.286.].

Muhammad Rahimxon 1747-yil amalda 1756-yil esa rasman davlatni boshqaradi. Din ulamolari va fozillarga ko'p ehsonlar tortiq qiladi. 45 yoshida vafot etadi. Muhammad Rahimxonning o'g'li yo'q edi. Qizidan Fozil To'ra degan nevarasi bor edi. Fozil To'ra juda yoshligi uchun Muhammad Rahimxonning amakisi Doniyolbiy otaliq qilib tayinlandi. Ammo keyinchalik Fozil To'ra taxtdan ag'darilib, soxta xon Abulg'oziyxon taxtga qo'yiladi amalda esa davlatni Doniyolbiy boshqaradi. Doniyolbiy davrida mahalliy bek va amirlarni isyoni kuchayadi. Salimiy Amir Doniyolbiyning 27 yil hukmronlik qilib, 75 yil yashaganini ta'kidlab o'tadi. Qabri esa Naqshband mozorida joylashgan. Doniyolbiydan keyin taxtga Amir Shomurod chiqadi. Soxta xon Abulg'oziyxon taxtdan ag'darilib, Ark yaqinidan hovli beriladi hamda umrbod nafaqa tayinlanadi. Hukmronligining dastlabki yillarida o'z birodarlarini viloyatlarga hokim qilib tayinlaydi. Ammo Marv viloyati hokimi Bayram Alixon amirga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Amir Shohmurod katta qo'shin bilan Marvni egallab, Bayram Alixonni qatl qiladi. 30 minglik shialar hamda Bayram Alixonning o'g'li Hoji Muhammad Husaynxonni Buxoro atroflaridagi qishloqlarga ko'chirib olib keladi. Marv shahri yaqinida yangi shahar qurib uni Islomobod deb nomlaydi. Marv aholisi yana qo'zg'olon ko'tarishadi. Faqatgina

1797-yil Marv egallanib, Sultonbandi qayta ishga tushuriladi, o'g'li Dinnosirbekni hokim qilib tayinlaydi. Amir Shohmurod davrida amirlik hududlari birmuncha kengaydi. Afg'oniston amiri Temurshoh va Eron shohlariga qarshi muvafaqqiyatli urushlar tashkil qilinadi. Hikoya qiladilar – zo'r ulamolardan ikki shaxsni rais qilib, ularga buyurdiki, har qayerga bid'at bo'lsa, barham beringlar. Bid'atni barham beruvchi raisot uning buyrug'iga amal qilib, tamomi bid'atlarni yo'qotishga kirishdilar. Kunlardan bir kuni ulardan so'radiki qilgan ishlaridan hisob bersinlar. Ular aytdilarki, tamomi bid'atlarni barham berdik, ammo ikki ishga jur'at etolmadik. Amir Ma'sum so'radiki ular qaysilardir? Aytdilarki, biri mozorlardagi tug'lar, boshqasi shayxlar qo'lidagi tasbihlar. Amir dedi, faqir amr qilgan edimki, tamomi bid'atlarki rasul sallollohi alayhi va sallam va xalifai rasuldin va dini rizvoni Olloh taoloyi alayxis ajmayin imomlari davrida yo'q edi, keyin paydo bo'lganlarni barham bering chunki ular riyodir. Ular javob berdilarki, mardumning qahr-u g'azabidan qo'rqdik, agar buzrukvorlardagi tug'larga sajda qilmasliklari uchun ularni yo'qotinglar deb aysak mabodo bizlarning umrimiz oxiriga yetsa mardum ayrim mutaassiy mullalarning makr hiylasiga ishonib aytsunlarki, faloni buzrukvor zo'rdirlar faloni shayxni uchirdilar. Agar shayxlar qo'lida ko'chalarda ko'tarib yurgan tasbehlarini yo'qotsak, "bizlar duoi bad qildik, shuning uchun ular vafot etdilar", - deb aytadilar. Shuning uchun ularni bahridan kechdik. Amir ham ularni bu so'zlarni qabul qildilar. Alqissa amir Shohmurod jannat makoni o'n olti yil podsholik qilib, oltmish bir yil umr ko'rib, haqni rahmatiga payvasta bo'lib, olamdan o'tdi. Xoja Xabibullo va Hazrat Imlo rahmatulloxi alayxi mozorida ya'ni Jo'yborda dafn qilindi. Amir Haydar bir ming ikki yuz un beshinchi hijriy (1800 isoviy) yilda yigirma ikki yoshida Qarshi viloyatidan kelib, Buxoroning saltanat taxtiga o'tirdi. Onasi Said Abulfayzxonning qizi ediki, Mang'itiya avlodlaridan bo'lgan podsholarga Said laqabini berilishi amir Haydar davridan boshlandi. Said Amir Haydar ilm va hunarkorlikka iste'dodi baland edi. Aksar diniy ilmlarda boshqa ulamolardan g'olib chiqar edi. Amir Haydar bir ming ikki yuz qirq ikkinchi hijriy (1826-1827 isoviy) yilida bu jahonni fonidan intiqol qildi. Hazrati Imloda ko'milgan. Podsholik muddati yigirma yetti yil. Qirq sakkiz yil umr ko'rdi. Mirzo Salimbek Amir Haydar shaxsiyati haqida: "raiyatparvar, saxiy, olim edi. Talaba axlidan to'rt yuzta shogirdi bor edi. Maxsus darsxonada shogirdlarga ta'lim berar edi",- deya ta'kidlaydi [Кашкули Салимий (тавориhi муттакадимин ва муттаахирин), Нарзулло Йўлдошев таржимаси, "Бухоро" нашриёти, 2003 йил, Б.296.]. Amir Nasrullo bir ming ikki yuz qirq ikkinchi hijriy (1826-1827 isoviy) yilda Buxoro saltanat taxtini egalladi. O'zining birodari amir Umarni Hirotga yuboradi. U yerdan Qo'qonga keldi. Amir Nasrullo har yil ikki marotaba Shahrisabz ustiga lashkar tortib, bir oy Humoqulibiy va Iskandarbiy bilan urushib, sulh tuzib Buxoroga qaytib kelar edi. Yigirma sakkizinchi safar oyidan keyin Shahrisabzni fath qilib, Iskandarbiyni Buxoroga ko'chirib olib borib, uning singlisini oladi. Bir ming ikki yuz yetmish yetti hijriy (1860-1861 isoviy) yilda amir Nasrullo o'ttiz besh yil va bir oy saltanat qilib, oltmish uch yil umr ko'rib vafot etdi. Mirzo Salimbek asarda Amir Nasrulloni quloq og'rig'i kasali bilan vafot etgan, uning kabri Eshoni Imlodadir deb yozib qoldiradi [Кашкули Салимий (тавориhi муттакадимин ва муттаахирин), Нарзулло Йўлдошев таржимаси, "Бухоро" нашриёти, 2003 йил, Б.296.].

Amir Muzaffar otasi vafotidan keyin, Karmanadan kelib taxtga o'tiradi. Hamma viloyatlardan peshkash, tortiqlar keladi. Faqat Hisor hokimi Abdul Karim devonbegi, Ko'lob va Baljuvon hokimi

Saribek dodxo, Karategin va Darvoz shoxlaridan peshkash va hadyalar kelmadi. Amir Muzaffar davrida Rossiya lashkarlari Turkiston viloyatlarini bosib ola boshladi. General Chernyaev boshchiligidagi Rossiya qo'shinlari Toshkent viloyatini oldi. Said Amir Muzaffar Rossiya qo'shinlari bilan g'azo qilish niyatida juda ko'p lashkar bilan bir ming ikki yuz sakson ikki hijriy yilda Samarqandga kelib Sheralibiy Inoq nomli o'zining qulini Samarqandga hokim qilib Ollobek devonbegini Jizzax viloyatiga hokim qilib o'zi lashkar bilan birga Sirdaryo bo'yidagi Sasiqko'l mavzeida necha kun turib ediki, rus qo'shinlari Toshkentdan chiqib Chinozga kelib Buxoro lashkarlari bilan jang qildilar. Buxoro qo'shinlari oralari buzilib qocha boshladilar. Said amir Muzaffar Samarqandga kelib u yerdan Buxoroga keldi. Rus qo'shinlari Sirdaryodan o'tib Jizzaxga kelib Ollobek devonbegi lashkarlari bilan ko'p janglar qilib, musulmon lashkarlari mardonavor jang qilib, sanoqsiz kishilar, hamda Ollobek devonbegi ham bu jangda shahid bo'ldilar. Rus qo'shinlari Jizzaxni olib, boshqa yili Samarqandga kelib, uni muhosara qilib, Sherali Inoq jangda shahid bo'lib, u yerdan rus qo'shinlari Kattaqo'rg'on, Panshanbani olib, Zirabuloqqa yetib keladi. Buxoro lashkari Zirabuloqqa ruslarga qarshi qattiq janglar olib bordilar. Ikki tomondan ham ko'p kishilar shahid bo'ldilar. Ruslar qaytib Kattaqo'rg'onga ketdilar. Said amir Muzaffarxon ko'rdiki, jang bilan ish bitmaydigan, oliy irodasiga (xudo irodasiga) rozi bo'lib, sulh qilishga majbur bo'ldi.

Said amir Muzaffarxon yigirma yil podsholik qilib bir ming uch yuz uchinchi hijriy (1885-yil isoviy) yilida tovuq yili 6 safar oyida vafot etdi. Otasining yonida ya'ni Eshoni Imlo mozoristonida dafn qilingan. Amir Abdulaxadxon Otasi vafotidan keyin Karmana viloyatidan kelib, Buxoro taxtiga ega bo'ldi. Butun ulamovu umaro (amaldor) lar fuqarolarni osuda va xotirjam qildilar. Amorat panox Ostonaqul qushbegi, Hisor hokimi Shodmonbiyni bir necha kishilar bilan Peterburgga elchi qilib yubordi. Ular orasida kitob muallifi Uroq, ham bor edi. O'sha vaqtda otash aroba (poezd) yuk, edi. Rus pochta arobalariga minib to Orenburggacha borib, u yerdan otasharobaga o'tirib Peterburgga bordik. Imperator Aleksandr Aleksandrovich buyrug'i bilan bizlarni Malamorskoy Goran atel'e nomli mexmonxonaga keltirib ko'p e'zozlar qilib joylashtirdilar. Muazzam imperatorni huzuriga bulib, bizlarning har birimizga nishon, tillo soat, brilliantli angushtarin (uzuk)lar sovg'a qildi. Butun podsholik chorbog'lari va qasrlarni, Kranshtat ismli dengiz ichidagi shaharni ko'rsatdilar. Amir Abdul Axad saltanati ayomida hamma viloyatlar xotirjam va osoyishta edilar. Buxoro atrofidagi viloyatlardan to Darvoz, Qarategin qibla chegaralari bo'lgan Qaboqligicha (ya'ni Urganch chegarasigacha), Qarshidan Shahrissabz, Kitobgacha bo'lgan hamma farmonbardor edilar. Amir Axadxonning saltanatining oxirgi yillarida Eroniylar Buxoro talaba va ulamolari bilan jang qilib, ikki tomondan ham ko'p kishilar o'ldirildi. Ostonaqul qushbegi ishdan chetlashtirilib, uning o'rniga Mirzo Nasrullo biy qushbegi vazoratlik vazifasiga tayinlandi. Amir Abdul Axad bir ming uch yuz yigirma sakkizinchi hijriy (1910-yil dekabr isoviy) yilida vafot etgan. Buxoro saltanat taxtiga Said mir Olimxon o'tirdi. Ulamo va amaldorlar uni navozish qilib ehtirom bilan kutib oldilar. Askariya maxonalarini uch barobar oshirdi. Navkarlarning maoshlarini ikki barobarga oshirdi [Кашкули Салимий (тавориhi муттақадимин ва муттаахирин), Нарзулло Йўлдошев таржимаси, “Бухоро” нашриёти, 2003 йил, Б.306.]. Asarda Buxoro amirligi haqida tafsilotlar 1913-yildan keyin yakunlanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Mirzo Salimbekning "Kashkuli Salimiy va tarixi muttaqadimin va muttaaxirin" asari muhim tarixiy manba bo'lib, asarda eng qadimgi davrdan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrdagi Movarounnahr, Eron, Rossiya tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari islom tarixiga alohida o'rin qaratiladi. Mirzo Salimning asarlarida o'sha davr Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, xalqining turmush tarzi va yashash sharoitlari yorqin aks ettirilgan. Bundan tashqari amirlikdagi siyosiy tuzum va uning barbod bo'lishi va Rossiya-Buxoro munosabatlari haqida so'z yuritiladi. Salimiy o'zi guvoh bo'lgan har bir voqea, hodisadan ibratli xulosalar chiqaradi. «Kashkuli Salimbek»da muallifning o'zi guvoh bo'lgan tarixiy voqealar ancha. Xususan Buxoroyi sharifga yevropaliklarning munosabati, Buxoroyi sharifning qanaqaligini ulardan birini surashi va Salimbekningunga bergan munosib javobi-shularning hammasi muallifning aqli, farosati, e'tiqodiy-ma'naviy olamining butunligidan dalolat berib turadi.

Mirzo Salimbekning asarlarini o'rganish ham bugunning dolzarb mavzularidan biri hisoblanib, uni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etib, manbalar, arxiv hujjatlari orqali xolislik bilan yaqindan o'rganib, fanga yangiliklar kiritish, bugungi va kelajak avlodni haqqoniy tarixdan boxabar etish zarurligini bildiradi. Shuningdek, Mirzo Salimbek shaxsiyatini ham o'rganish, uning murakkab tarixiy sharoitdagi faoliyati alohida tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Кашкули Салимий (тавориhi муттақадимин ва муттаахириh), Нарзулло Йўлдошев таржимаси, "Бухоро" нашриёти, 2003 йил. Б.342.
2. Ражабов К, Иноятлов С. Бухоро тарихи. - Тошкент. 2016.
3. Л.П.Епифанова «Рукописные источники по истории Средней Азии периода при соединения её к России», Тошкент.: 1965г.С.345.
4. Бухорий А.Р. Рахимов К. Мирзо Салимбек колдирган мерос // Мозийдан садо,2006. № 1.
5. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского Н.К.Норкулов. — Тошкент. 2009.
6. Baxronovna R. D. French explorers' expeditions in Central Asia //International Journal on Integrated Education. – 2019. – Т. 2. – №. 6. – С. 253-256.
7. Bakhronovna R. D. The scientific expedition of french explorer charles eugene ujfalvy in central asia //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2019. – Т. 8. – №. 8. – С. 78-85.
8. Bakhronovna R. D. Teamwork as an Effective Way to Achieve Goals //JournalNX. – С. 710-713.
9. Rasulova D. B. O'ZBEKISTONDA XORIJIY SAYYOHLIK AMALIYOTI TARIXI (FRANSUZZABON TADQIQOTLAR VA MANBALAR ASOSIDA) //Turizm ilmiy-amaliy elektron jurnali. – 2018. – Т. 1. – №. 1. – С. 50-61.

10. Baxronovna R. D. Researches about Turkestan the French travellers (On the basis of modern researches of the French scientists) //Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives. – 2016. – C. 60.
11. Rasulova D. B. Issues of study of Central Asia in the French historiography of the XIX century //International Journal of Intellectual Cultural Heritage. – 2021. – T. 1. – №. 1. – C. 79-90.